



ZEEKR 7X

Avtomobildan foydalanish qo'llanmasi



ZEEKR

■ Ushbu qo'llanma bilan bog'liq muhim ma'lumotlar

Xavfsizlik, qulaylik, quvvat va tejamkorlikka ega bo'lgan ZEEKR avtomobilini tanlaganingiz uchun tashakkur bildirib qolamiz. Undan ilk bora foydalanishdan oldin, iltimos, ushbu qo'llanmaning mazmunini diqqat bilan va to'liq o'qing, bu sizga avtomobilni yaxshiroq tushunishga va foydalanishga yordam beradi. Ushbu qo'llanmadagi barcha ma'lumotlar nashr etilgan paytdagi eng so'nggi ma'lumotdir, ammo kompaniya mahsulotlarni takomillashtirish va optimallashtirishda davom etadi. Siz sotib olgan avtomobil ushbu qo'llanmadagi tavsifdan farq qilishi mumkin. Iltimos, sotib olingan avtomobilga qarang. Ushbu qo'llanma har doim avtomobilingizda saqlanishiga ishonch hosil qiling. Avtomobilni o'zga foydalanuvchiga vaqtinchalik haydab turishga berganingizda yoki sotkaningizda, iltimos, ushbu qo'llanmani yangi foydalanuvchiga bering. Agar sizda biron bir savol yoki xizmat ko'rsatish markaziga yozilish kerak bo'lsa, iltimos, biz bilan bog'laning 400-003-6036. Iltimos, xavfsizligga e'tibor bering.

©Zhejiang Ji Krypton Intelligent Technology Co., Ltd.

Ushbu qo'llanmaning mazmunini yaxshiroq tushunishingiz uchun siz quyida keltirilgan barcha ma'lumot bilan tanishib chiqishingiz kerak.

Avtomobil jihozlanishi va opsiyalari.

Ushbu qo'llanmada turli xil modelllar, standart jihozlanish va opsiyaviy funksiyalar haqida ma'lumotlar ham keltirilgan. Ayrim ma'lumotlar sizning avtomobilingizga taalluqli bo'lmagligi mumkin, chunki turli mamlakatlar yoki mintaqalarning qonunlari va qoidalariga ko'ra, o'ziga xos konfiguratsiya boshqacha bo'ladi. Tafsilotlar uchun avtomobilingizga qarang.

Avtomobil texnik ko'rsatqichlari

Avtomobilning o'lchamlari, og'irligi, maksimal ruxsat etilgan massasi, o'q yuklanishi, shinalar xususiyatlari va boshqa texnik ko'rsatqichlar haqidagi ma'lumotlarni elektron foydalanuvchi qo'llanmasidan topishingiz mumkin.

■ ZEEKR bilan bog'lanish

Agar sizda ushbu qo'llanmaning mazmuni bo'yicha savollaringiz bo'lsa, quyidagi usullar orqali ZEEKR bilan bog'laning.

+ 998 78 12 000 21

<https://zeekr-cars.uz/warranty>

■ Elektron foydalanuvchi qo'llanma

Avtomobil bilan birga kelgan qog'oz foydalanuvchi qo'llanmasida faqat ish paytida foydalaniladigan ba'zi ma'lumotlar mavjud. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun elektron foydalanuvchi qo'llanmasiga qarang. Avtomobildan yaxshiroq foydalanish uchun foydalanuvchi qo'llanmasini diqqat bilan o'qib chiqish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, elektron qo'llanmada video ko'rish, qidirish va hokazo kabi qo'shimcha funksiyalar mavjud. Siz elektron foydalanuvchi qo'llanmasini quyidagi usullardan birida ko'rishingiz mumkin:

1. Markaziy displeyda elektron foydalanuvchi qo'llanmasini ko'ring.
Elektron foydalanuvchi qo'llanma interfeysiga kirish uchun markaziy displeydagi foydalanuvchi qo'llanmasi ilovasi belgisini bosing.
2. Elektron qo'llanmani ZEEKR ilovasi orqali ko'ring
Elektron foydalanuvchi qo'llanma interfeysiga kirish uchun ZEEKR APP texnik xizmat ko'rsatish sahifasidagi foydalanuvchi qo'llanmasini bosing.



Diqqat!

- Avtomobilning funksiyalari doimiy ravishda yangilanib va takomillashtirib borishi sababli, elektron foydalanuvchi qo'llanmasi ham shunga mos ravishda yangilanadi. Shu sababli, elektron foydalanuvchi qo'llanmasining mazmuni avtomobil bilan birga kelgan bosma foydalanuvchi qo'llanmasidan farq qilishi mumkin. So'nggi elektron foydalanuvchi qo'llanmasi bilan tanishish tavsiya etiladi.
- ZEEKR istalgan vaqtda foydalanuvchi qo'llanmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

■ Xavfsizlik kamari

Xavfsizlik kamarining oldindan tortgich funksiyasi

Avtomobil to'qnashuvining ayrim turlarida (to'qnashuvning burchagi va og'irligiga qarab), xavfsizlik kamarining oldindan tortgich funksiyasi kamarni tortib, haydovchi va yo'lovchilarni joyida ushlab turishga yordam beradi, shu bilan birga kamarni tortgich bilan birgalikda ishlaydi

⚠ Ogoh bo'ling!

- To'qnashuvdan so'ng retractor qizishi va teringizni kuydirishi mumkin.
- Retraktor detonatsiyasi natijasida hosil bo'ladigan tutun va chang bilan uzoq vaqt aloqa qilish teri yoki ko'zlarda noqulaylikni keltirib chiqarishi mumkin. Agar chang yoki tutun ko'zga yoki zararlangan teriga tushsa, darhol ularni yuving. Agar yuvishdan keyin noqulaylik davom etsa, tezda tibbiy yordamga murojaat qiling.

i Diqqat!

- Oldindan tortish moslamasi ishga tushirilganda, ma'lum miqdorda chang (tutun) chiqariladi va baland shovqin sado paydo bo'lishi mumkin. Bu normal holat va yong'inga olib kelmaydi.

■ Xavfsizlik kamaridan foydalaning

Xavfsizlik kamarlarini taqib oling.

1 Iltimos, harakatni boshlashdan oldin o'rindiqni qulay sozlab oling.

2 Xavfsizlik kamarini asta tortib oling va tutqichda chertish eshittilguniga qadar to'g'ri joylashtiring..

3 ➡ Xavfsizlik kamarini iloji boricha tosingizga yaqin qiling.

➡ Xavfsizlik kamarini diagonal ravishda yelkangizdan tushirib ko'kragingiz bo'ylab joylashtirilganligiga ishonch hosil qiling.



⚠ Ogoh bo'ling!

- Harakatni boshlashdan oldin, iltimos, o'rindiqni o'zingizga sozlab oling. Aks holda, noto'g'ri sozlangan baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin, xavfsizlik kamarlari, xavfsizlik yostiqlari va boshqa himoya funksiyalarining samaradorligini kamaytiradi.
- O'rindiqni juda qattiq yotkizib olmang, bu to'qnashuv bo'lganda taqdirda tanangizni xavfsizlik kamaridan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik kamarlari faqat to'g'ri o'tirib, o'rindiqda orqaga suyanib o'tirsangiz, maksimal himoyani ta'minlaydi.
- Xavfsizlik kamarining to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun uni tutqichga o'rnatishni unutmang.
- Xavfsizlik kamarini taqishdan oldin, iltimos, tutqichda begona narsalar (masalan, oziq-ovqat qoldiqlari va boshqalar) yo'qligiga ishonch hosil bo'ling. Agar unda begona narsalar bo'lsa, darhol olib tashlang.
- Haydovchi rulda bo'lganda, xavfsizlik kamari uning bo'shashib ketishini oldini olish uchun, tanaga mahkam va qattiq tarzda mahkamlangan bo'lishi kerak.
- Xavfsizlik kamarini orqada, qo'l ostida yoki bo'yin atrofida tortmang. Xavfsizlik kamarlari yuzingiz va bo'yningizdan yetarlicha masofada joylashtirilishi kerak.
- Agar xavfsizlik kamari to'g'ri fishlamasligini sezsangiz, iltimos xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Xavfsizlik kamarini bo'shatish uchun xavfsizlik kamarining tutqichidagi bo'shatish tugmasini bosing va xavfsizlik kamarining avtomatik ravishda tortilishiga imkon bering.

Agar xavfsizlik kamari to'liq tortilmagan bo'lsa, uni erkin osilib qolguncha qo'lda tortib yordam bering.



⚠ Ogoh bo'ling!

- Xavfsizlik kamarini bo'shatganda, uni juda tez chiqib ketishi va shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun bo'shatish tugmasini bosishdan oldin uni ushlab turing.

■ Xavfsizlik yostig'i



Xavfsizlik yostig'i — bu haydovchi va yo'lovchining bosh va ko'kragiga qo'shimcha himoya ta'minlash uchun xavfsizlik kamarlari bilan birgalikda ishlatiladigan passiv xavfsizlik tizimi. Xavfsizlik yostig'i faqat avariya holatlarida ishlaydi. Xavfsizlik kamar va xavfsizlik yostig'i birgalikda ishlaydi: agar siz xavfsizlik kamarini taqmagun bo'lsangiz yoki noto'g'ri taqqan bo'lsangiz, to'qnashuv holatida xavfsizlik yostig'ining ta'minlaydigan himoyasining samaradorligi pasayadi yoki umuman yo'q bo'ladi. Xavfsizlik yostig'ining boshqaruv moduli har bir qurilmaning ishlashini nazorat qiladi. U to'qnashuvni aniqlaganda, xavfsizlik yostig'i ishga tushadi, xavfsizlik kamarini oldindan tortadi. Xavfsizlik yostig'i ishga tushganda, u tezda shishadi va qisqa vaqt ichida qayta qisqaradi.

Haydovchining xavfsizlik yostig'i rul chambaragida joylashgan va **"AIRBAG"** yozuvi bilan belgilangan. Yo'lovchilar uchun havo yostig'i asbob-uskunalar panelida joylashgan va **"AIRBAG"** yozuvi bilan belgilangan.

Old xavfsizlik yostiqchalari ochilganda yo'lovchilarning boshi va ko'krak qafasi shikastlanishi xavfini kamaytiradi.

Old yon xavfsizlik yostiqchalari oldingi o'rindiqlarning yon tarafida joylashtirilgan va o'rindiqlarda **"AIRBAG"** deb belgilangan.


Kuchli yon zarba ta'sirida, old yon xavfsizlik yostiqchalari yo'lovchilar va eshik qoplamasi o'rtasida ochilib, yo'lovchilarning ko'krak qafasi, yelka qismi va oyoqdagi jarohatlarni kamaytiradi.




⚠ Ogoh bo'ling!

- O'rindiqlarning tashqi tomoni va eshik qoplamasi orasidagi bo'shliqqa hech narsa qo'ymang.
- Old o'rindiqlarning orqa tomoniga o'rindiq qoplamasini o'rnatmang.

Masofaviy xavfsizlik yostig'i — bu haydovchi o'rindig'ining o'ng tomoniga o'rnatilgan bo'lib, o'rindiqlarda "AIRBAG" degan belgi mavjud. Agar yon tomondan to'qnashuv yuzaga kelsa, masofaviy xavfsizlik yostig'i ochilib, yo'lovchining bosh va ko'kragiga etkaziladigan zararni kamaytiradi.



Bosh xavfsizlik pardasi — bosh xavfsizlik pardalari avtomobilning tomi bo'ylab ikki tomonlama o'rnatilgan bo'lib, tashqi o'rindiqlarda o'tirgan yo'lovchilarni himoya qiladi. Agar yon tomondan va/yoki old tomondan to'qnashuv sodir bo'lsa, bosh xavfsizlik pardasi ochilib, sizning va boshqa yo'lovchilarning boshini avtomobil ichki devoriga urilishdan himoya qiladi.



⚠ Ogoh bo'ling!

- Hech qachon og'ir narsalarni yo'lovchi tutqichlariga osmang yoki ularga bog'lamang.
- Havo yostig'i ochiladigan joyga hech qanday buyum qo'ymang.
- Bagaj va orqa o'rindiqlarga haddan tashqari ko'p buyum qo'ymang.
- Avtomobilning asbob-uskunalar paneli, eshik romlari yoki yon panellariga hech narsa o'rnatmang.
- Haydovchi o'rindig'ining o'ng tomoni va markaziy tirsak qo'ygich o'rtasidagi bo'shliqqa hech narsa qo'ymang.

■ Elektron barqarorlikni nazorat qilish tizimi (ESC)

Kuzov barqarorligini nazorat qilish tizimi (ESC) avtomobilning haddan tashqari yoki kamroq burib yuborgan paytida bir yoki bir nechta g'ildiraklarning tormoz taqsimlanishini nazorat qilish orqali haddan tashqari yoki kam burilishni kamaytiradi yoki yo'q qiladi, shu bilan haydashi barqarorligini va xavfsizligini oshiradi.

⚠ Ogoh bo'ling!


- Barqarorlikni nazorat qilish tizimi yordamchi tizim bo'lib, har qanday holat yoki yo'l sharoitida ishlamaydi. Haydovchi har doim transport vositasini xavfsiz va ehtiyotkorlik bilan boshqarish, shuningdek, amaldagi qonunlar, qoidalar va yo'l harakati qoidalariga rioya qilish uchun javobgardir.
- Hech qachon avtomobilning podveskasini o'zingiz mustaqil ravishda tuzatmang yoki o'zgartirmang. Aks holda, barqarorlikni nazorat qilish tizimi noto'g'ri ishlashi mumkin, bu esa avtomobilning boshqaruviga, xavfsizligiga va uzoq muddatli ishlashiga salbiy ta'sir qiladi.
- Agar barqarorlikni nazorat qilish tizimi o'chirilgan bo'lsa, avtomobilni boshqarish zaiflashishi mumkin. Yaxshi yo'llarda harakatlanish paytida avtomobilning barqarorlikni nazorat qilish tizimini o'chirish qat'iyan man etiladi.

i Diqqat!


- Stabilizatsiya tizimini markaziy displey orqali yoqish va o'chirish mumkin. Qo'shimcha ma'lumot uchun elektron foydalanuvchi qo'llanmasiga qarang.
- Agar avtomobil qor, qum yoki boshqa sharoitlarda qotib qolgan bo'lsa, stabilizatsiya tizimini vaqtincha o'chirish bu holatdan chiqishga yordam berishi mumkin. Muammo bartaraf etilgandan so'ng, stabilizatsiya tizimini qayta yoqishni unutmang.

■ Favqulodda-qutqaruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha ma'lumot

Barcha g'ildirak tortuvchi



Xavfsizlik yostig'ini boshqarish bloki




Xavfsizlik kamarlarining oldindan tortgichlari



Gaz balloni




12V akkumulyator




Xavfsizlik yostiqlashi



Yuqori kuchlanishli komponent simlari




Favqulodda simni kesish asbob-uskunasi




Gaz generatori



Pnevmatik tirgaklar



Strukturaviy mustahkamlash



Quvvatlash uchun akkumulyator




Yuqori kuchlanishli komponentlar

Orqa qo'zg'ash



Xavfsizlik yostig'ini boshqarish bloki




Xavfsizlik kamarlarining oldindan tortgichlari



Gaz balloni (opsiya)




12V akkumulyator




Xavfsizlik yostiqlashi



Yuqori kuchlanishli komponent simlari




Favqulodda simni kesish asbobi




Gaz generatori



Pnevmatik tirgaklar



Strukturaviy mustahkamlash



Quvvatlash uchun akkumulyator



Yuqori kuchlanishli komponentlar

■ Yuqori kuchlanishni favqulodda o'chirish

⚠ Ogoh bo'ling


- Kasbiy tayyorgarligi bo'lmagan shaxslar yuqori kuchlanishli komponentlarga tegishlari qat'iyan taqiqlanadi.
- Yuqori kuchlanishli tizimni o'chirishdan oldin, agar siz yuqori voltli jabduqlar yoki komponentlar ustida ishlashingiz kerak bo'lsa, tegishli shaxsiy himoya vositalarini kiyganingizga ishonch hosil qiling.
- Elektr toki urishining oldini olish uchun, yuqori kuchlanishli tizim o'chirilganidan so'ng ham, batareya komponentlariga tegmaslik kerak, faqat mutaxassislar tomonidan tegishli shaxsiy himoya vositalarini kiygan hollardan istisno.
- Zarar ko'rgan yuqori kuchlanishli komponentlarni xavfsizlikni ta'minlash uchun izolyatsion lentasi bilan o'rab qo'ying.
- Yuqori kuchlanishli tizimni o'chirgandan so'ng, tegishli asboblarni (masalan, tester) yordamida avtomobil korpusi yuqori kuchlanish ostida emasligini tekshirib ko'ring.

❗ Diqqat!


- Favqulodda holatlarda yuqori kuchlanishli tizimni tezda o'chirish uchun mo'ljallangan favqulodda sim kesish moslamasini o'chirish jarayoni texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi va ma'lum xarajatlarni talab qilishi mumkin.

Old motor bo'limidagi simlarni favqulodda uzish qurilmasi:


1. Avtomobilning harakatlanishining oldini olish uchun uni mahkamlang.
2. Yuqori kuchlanishli tizimni o'chirish vaqtida harakatsiz bo'lishi kerak.
3. Old motor bo'limining qopqog'ini oching. Motor bo'limining old qismida to'qimalar bilan mustahkamlangan dekorativ qoplama o'rnatilgan.
4. Rasmda ko'rsatilganidek, ikki tomondagi o'rnidan chiqarib, qoplamani ehtiyotkorlik bilan olib tashlang.



4. Qoplamani olib tashlashga xalaqit bermasligi uchun rasmda ko'rsatilgan muhrni olib tashlang



5. Dekorativ qoplama ko'tarilgunga qadar, strekalar bo'yicha yo'riqnomaga amal qilib, qoplama chetidagi bog'lovchilarni soat mili yo'nalishida burang.



6. Favqulodda simni kesish uchun maxsus qisqichlardan foydalaning.




❗ Diqqat!

- Old motor kopoti elektron tarzda ochiladi. Uni ochish bo'yicha ko'rsatmalarni elektron foydalanuvchi qo'llanmasining "Old kopotni ochish" bo'limida topishingiz mumkin.

■ Avtomobilni shatakka olish

Shatakka olish usuli

- 01 Transport vositasini xavfsiz tashish uchun tavsiya etilgan usulda bortli priseplarga o'rnatish zarur.
- 02 Avtomobilning old g'ildiraklarini ko'tarish va orqa g'ildiraklarini erdan uzilgan holda kichik pritsepga o'rnatish tavsiya etiladi. Bu usul qisqa masofalar uchun mos keladi.
- 03 Orqa g'ildiraklarni oldinga qarab aylanish holatida avtomobilni shatakka olish qat'iyan man etiladi.
- 04 Avtomobilning old qismidan/shassi qismidan ko'tarib shatakka olish — noto'g'ri usul.
- 05 Shuningdek, avtomobilning orqa qismidan/shassi qismidan ko'tarib shatakka olish ham noto'g'ri usul hisoblanadi.
- 06 Shatakka olish uchun professional bo'lmagan uskunalaridan foydalanishga — mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.



⚠ Ogoh bo'ling


- Agar sizga avtomobilni shatakka olish zarur bo'lsa, professional evakuatsiya xizmati bilan bog'lanish tavsiya etiladi. Tegishli tajribaga ega bo'lmagan holda mustaqil shatakka olish avtomobilga zarar yetkazishiga olib kelishi mumkin.
- Transport vositasi bortli prisepga yuklangach, avtomobilni xavfsiz to'xtashini ta'minlash uchun, iltimos, pritsep rejimidan chiqib, elektron to'xtash tormozini (EPB) yoqing.
- Transport vositasi shatakka olinganda, orqada hech kim yoki hech qanday buyum bo'lmashligi kerak.
- Transport vositasini buklash paytida, yo'lovchilar va uy hayvonlarining unda bo'lishi taqiqlanadi.

! Diqqat!

- Shatakka olishdan oldin transport vositasini bortli prisepga yuklash uchun uni shatakka olish rejimga o'tkazish kerak.
- ZEEKR avtomobilni shatakka olish uchun bortli prisepdan foydalanishni tavsiya qiladi. Shatakka olish vaqtida to'rtala g'ildirak yerga tegmasligi kerak.
- Transportirovka vaqtida avtomobilning g'ildiraklari mahkamlangan va aylanmayotganligiga ishonch hosil qiling.

Buksir halqasidan foydalanish

1 Bagajni oching va ichki gilamchani ehtiyotkorlik bilan ko'taring.



2 Bagajni yoping

3 Himoya qopqog'ini ochish uchun strelka ko'rsatilgan joyga bosing.



4 Buksir halqasini rezbalı teshikka oxirigacha burab kiriting.

5 Foydalaningizdan so'ng, iltimos, buksir halqasi va qopqoqni dastlabki holatiga qaytaring.

! Diqqat!

- Avtomobilning holati va yo'l bilan kuzov oraligi (klirens) uning bortli prisepga yuklanishi uchun buksir halqasidan foydalanish imkoniyatini belgilaydi. Agar buksir rampasining burchagi juda tik yoki yerga bo'lgan masofa yetarli bo'lmasa, buksir halqasidan foydalanish transport vositasiga zarar yetkazishi mumkin.

■ Tormozlarning bloklanishiga qarshi tizimi (ABS)

Avtomobil tormozlarning bloklanishiga qarshi tizimi (ABS) bilan jihozlangan bo'lib, u qattiq tormozlanish paytida g'ildiraklarning bloklanishini oldini oladi va aksariyat yo'l sharoitida tormozlash samaradorligini oshiradi. Tizim avtomobilni boshqarishni saqlab qolishga imkon beradi, bu esa harakat ustidan nazoratni oshiradi va dinamik vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlaydi

! Diqqat!

- Mayda tosh, suv, muz yoki qor bilan qoplangan notekis yo'l qismida tormozlash yo'li qurigan va tekis yo'lga nisbatan uzoqroq bo'lishi mumkin.


i Diqqat!

- Tormozlash jarayonida siz salonning ichki qismdan uzluksiz "gurg'lash" tovushini eshitishingiz va tormoz pedalida tebranishni his qilishingiz mumkin. Bu tormozlarning bloklanishiga qarshi tizimining ishlashi natijasida yuzaga keladigan normal hodisadir va nosozlik emas.
- Tormozlarning bloklanishiga qarshi tizimi ishlashni to'xtatganda, tormoz pedalini bosish hissi blokirovkaga qarshi bo'lmagan tormoz tizimiga qaytadi.

■ Avtomobilni identifikatsiyasi


Islab chiqaruvchi yorlig'i

Ushbu yorliqda avtomobil markasi, avtomobil identifikatsiya raqami va boshqa shu kabi ma'lumotlar mavjud.



Avtomobilni identifikatsiya raqami (VIN)

Avtomobilni identifikatsiya raqami (VIN) - bu avtomobilni identifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan noyob raqam va harflar kombinatsiyasidir.



01 Old yo'lovchi o'rindig'ining orqa tomonidagi VIN raqami.

02 VIN raqam oldi oynaning pastki chap burchagida joylashgan.

! Diqqat!

- Avtomobil identifikatsiya raqamini (VIN) tirnamang, olib tashlamang, yopmang, yashirmang, o'zgartirmang yoki bo'yoq purkamang. Iltimos, harflar ko'rinadigan va o'qilishi mumkinligiga ishonch hosil qiling.

Mikroto'qinli oyna

Mikroto'qinli oyna avtomobilning old oynasida joylashgan.





+ 998 78 12 000 21

<https://zeekr-cars.uz/warranty>